O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK TILIDAGI SHIKOYAT MATNLARIDA NUTQIY AKTLARNING IFODALANISHI

THE REALIZATION OF SPEECH ACTS IN UZBEK COMPLAINT TEXTS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/NFKJ4744

Keldiyorova Zarinabonu Sirojiddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti
keldiyorovazarinabonu872@gmail.com

Annotation. *This article examines the communicative characteristics of complaint texts in the Uzbek language and their role in interaction. The study compares official written complaints with online customer reviews (such as user comments on “Play Market”). It demonstrates that a complaint text is not just an expression of dissatisfaction, but a complex structure combining state of affairs description, emotional expression, and requests for a solution. Additionally, the paper analyzes politeness rules in official texts and the use of punctuation markers (question and exclamation marks) to express emotions in digital comments. The article contributes to the study of speech culture and text analysis in Uzbek linguistics.*

Keywords: *pragmalinguistics, speech acts, complaint texts, Uzbek language, communicative intention, addresser, addressee, expressive.*

Zamonaviy tilshunoslikda til hodisalarini faqat grammatik va semantik jihatdan emas, balki ularning real kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanish xususiyatlari asosida o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv tilning insonlar o‘rtasidagi muloqotni tashkil etish, muayyan maqsadni amalga oshirish va kommunikativ ta’sir ko‘rsatishdagi imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan pragmalingvistika til birliklarining nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o‘rganadigan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Pragmatik tadqiqotlarda nutqiy aktlar alohida ahamiyatga ega. Nutq jarayonida inson faqat ma’lumot yetkazmaydi, balki gapirish orqali muayyan harakatni ham amalga oshiradi. Masalan, u savol beradi, iltimos qiladi, buyuradi, va’da beradi, uzr so‘raydi, norozilik bildiradi yoki talab qo‘yadi. Nutq aktlari

nazariyasining shakllanishida J.Ostin va J.Syorlning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Nutqiy akt tushunchasi kommunikativ birlikni faqat grammatik shakl sifatida emas, balki ma’lum bir kommunikativ harakatning amalga oshirilishi sifatida talqin qilish imkonini beradi. J.Ostin fikricha, har bir gap talaffuz qilinganda, o‘z ma’nosidan tashqari, ma’lum bir harakat bajariladi, ya’ni biror bir voqea haqida darak-xabar beradi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi yoki buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va’da yoki taklif qilinadi. [Safarov, 2008: 72]. Shikoyat matni ham o‘ziga xos nutqiy harakatlardan biridir. Shikoyat matnlarini illokutiv akt nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, matnning natijasini perlokutiv akt doirasida tahlil qilamiz. Bu matn turi orqali adresant o‘ziga noqulay bo‘lgan vaziyat, norozilik yoki huquq va manfaatlarining buzilishi haqida adresatga ma’lum qiladi. Biroq shikoyat matni faqat norozilikni ifodalash bilangina chegaralanmaydi. Unda vaziyatni bayon qilish, dalil keltirish, aybdor yoki mas’ul tomonni ko‘rsatish, iltimos qilish, talab qo‘yish kabi bir necha kommunikativ harakatlar birlashishi mumkin.

O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarini nutq aktlari nuqtayi nazaridan o‘rganish ushbu matnlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, rasmiy murojaatlarda shikoyatchining muammoni qanday bayon qilishi, norozilikni qaysi vositalar orqali ifodalashi va adresatni qanday harakatga undashi masalalari alohida tadqiqotga muhtoj. Quyidagi shikoyat matnlaridan olingan parchalar va ularning tahlili berildi.

Misollar:

1. *“Mazkur masala yuzasidan bir necha marotaba murojaat qildim.”*

Ushbu gap grammatik jihatdan oddiy xabar shaklida bo‘lsa-da, kommunikativ vaziyatda uning vazifasi faqat axborot berishdan iborat emas. Adresant ushbu gap orqali avval ham muammoni hal qilishga uringanini ko‘rsatadi va shu orqali keyingi murojaatining asosini yaratadi.

2. *“Ushbu masalani ko‘rib chiqishingizni so‘rayman.”*

Ushbu misolda *“so‘rayman”* fe’li adresatga qaratilgan direktiv mazmunni yuzaga chiqaradi. Adresant adresatning muayyan harakatni amalga oshirishini kutmoqda.

3. *“Yer maydonimizga suv yetkazib berishda muammolar yuzaga kelmoqda.”*

Ushbu gap orqali adresant muayyan holatni bayon qilmoqda. Gapning asosiy kommunikativ vazifasi mavjud vaziyat haqida adresatni xabardor qilishdan iborat.

4. *“Mazkur masala yuzasidan tegishli tashkilotlarga bir necha bor murojaat qildik, biroq muammo hal etilmadi.”*

Bu yerda ikki kommunikativ harakatni ko‘rish mumkin. Birinchi qismda adresant o‘zining avvalgi harakatlari haqida axborot bermoqda. Ikkinchi qismda esa muammoning hal etilmaganini ko‘rsatish orqali norozilik uchun pragmatik asos yaratilmoqda. Demak, shikoyat matnini tahlil qilishda gaplarning faqat lug‘aviy yoki grammatik ma’nosi emas, balki ular orqali qanday kommunikativ harakat amalga oshirilayotgani muhim hisoblanadi.

Shikoyatning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri adresantning muayyan vaziyatga bo‘lgan munosabatini ifodalashidir. Shu sababli ekspressiv nutq aktlari ham shikoyat matnlarida muhim o‘rin tutadi.

4. *“Mazkur holatdan noroziligimizni bildiramiz.”*

Bu gap orqali adresant nafaqat vaziyat haqida ma’lumot bermoqda, balki unga nisbatan salbiy munosabatini ham ochiq ifodalamoqda.

5. *“Afsuski, bir necha marotaba murojaat qilganimizga qaramay, masala o‘z yechimini topmadi.”*

Mazkur misolda birgina “afsuski” birligi adresantning kommunikativ-emotsional munosabatini kuchaytiradi. Shikoyatning ekspressiv xususiyati adresantning noroziligi, hafsalasi pir bo‘lishi yoki vaziyatdan qoniqmasligini ifodalash imkonini beradi. Biroq rasmiy shikoyatlarda emotsional munosabat ko‘pincha nazorat qilingan va rasmiy shaklda ifodalanadi. Shu jihatdan shikoyat matnlarida ekspressivlik va rasmiylik bir-biri bilan uyg‘unlashadi.

Yurtimizda ommalashayotgan onlayn ilovani yuklab olish uchun “Play Market” platformasidagi sharhlarga nazar soldik:



Mazkur matn bevosita shikoyat nutqiy akti hisoblanadi. Shikoyatchining murojaati to‘g‘ridan to‘g‘ri ilova bo‘yicha mas’ullarga yo‘nalgan va shikoyat obyekti ilovada pul jo‘natish funksiyasining ishlamasligi. “Nega?” olmoshidan so‘ng ikkita so‘roq va matn so‘ngida uchta undov qo‘yilishi norozilikning yuqori emotsional darajasini ko‘rsatmoqda. Matnda ko‘rish mumkinki, bu yerda kommunikativ maqsad faqat norozilik chiqarish emas, muammo haqida adresatga

xabar berish va undan amaliy yechim kutish hamdir. Shikoyatning pragmatik xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan yana biri adresant va adresat o‘rtasidagi munosabatdir.

Rasmiy shikoyatlarda adresat ko‘pincha yuqori vakolatga ega bo‘lgan tashkilot yoki mansabdor shaxs bo‘ladi. Bunday vaziyatda adresant o‘z talabini ifodalash bilan birga rasmiy-muloqot me’yorlariga ham amal qiladi. Shu sababli “hurmatli”, “Sizdan”, “iltimos qilaman”, “so‘rayman”, “ko‘rib chiqishingizni” kabi birliklarning qo‘llanishi rasmiy-muloqot me’yorlariga yaqqol misol bo‘la oladi. Ular adresantning muloqot maqsadini yumshatish, rasmiylikni ta’minlash yoki adresatga hurmat munosabatini ifodalash vazifasini bajarishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shikoyat matnini faqat “norozilik ifodalovchi matn” sifatida izohlash yetarli emas. Shikoyat matnlari murakkab kommunikativ tuzilishga ega bo‘lib, unda bir nechta nutqiy aktlar ketma-ket, shuningdek, bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi mumkin. Xususan, adresant dastlab muammoni bayon qiladi, keyin o‘z fikrini dalillar bilan asoslaydi, vaziyatga munosabatini bildiradi va nihoyat adresatdan muammoni hal qilishni so‘raydi yoki talab qiladi. Shunday qilib, shikoyatning kommunikativ maqsadi alohida bir gapda emas, balki butun matnning pragmatik tuzilmasida yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR

1.Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.

2.Searle, J. R., Kiefer, F., Bierwisch, M. (eds.). Speech Act Theory and Pragmatics. Dordrecht: D. Reidel, 1980.

3.Trosborg, A. Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints, and Apologies. Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 1995.

4.Shodiyeva A. Rasmiy nutqning lingvopragmatik xususiyatlari. Farg‘ona, 2020.

5.Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.

6.Sauer, M. Complaints: A Cross-Cultural Study of Pragmatic Strategies. University of Victoria, 2000.

7.Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2013.933

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**